



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 5

Languages of publication: **Uzbek,** English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Xolmirzayeva Marjona Akbarovna

Termiz davlat pedagogika instituti Magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning nazariy asoslari, zamonaviy ta'lim jarayonida kommunikativ yondashuvning ahamiyati hamda amaliy usullari yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarda og'zaki va yozma nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ta'lim texnologiyalari tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, o'quvchi, kommunikatsiya, kompetensiya, metod, texnologiya, intellekt, nazariya, amaliyot, rol o'yin, klaster, sinkveyn

Vatanimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni hozirgi taraqqiy etayotgan zamonaviy davrga munosib qilib tarbiyalash, ta'lim berish dolzarb masalalardan biriga aylanib bormoqda. Ularni intellektual salohiyatli, bilimli, kreativ hamda kritik fikrlay olishi, axborot kommunikatsiya vositalaridan oqilona foydalanib o'z hayotlariga tatbiq eta olishlari, o'z fikrlarini jamoada erkin bayon qila olishlari pedagog xodimlarning diqqati markazidadir. Aynan o'quv dasturlariga to'xtaladigan bo'lsak, ilgari o'quv dasturlari ko'proq nazariya (90%), o'qitish metodikasi esa yodlatishga yo'naltirilgan edi. Yangi Milliy o'quv dasturi bugungi zamon talablariga mos tarzda ishlab chiqildi, uning mazmuni 50 % nazariya, 50 % amaliyotdan iborat bo'lib o'quvchilarning mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

Bugungi globallashuv davrida ta'limning asosiy maqsadlaridan biri o'quvchilarning muloqotga kirishish, o'z fikrini ravyon, aniq va asosli ifodalash kompetensiyasini rivojlantirishdir. Boshlang'ich ta'limda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish o'quvchilarning keyingi bosqichlardagi ta'lim muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omil sanaladi. Chunki aynan shu davrda yoshlar nutqi, muloqot madaniyati, o'z fikrini jamiyatda to'g'ri bayon qilish ko'nikmalari shakllanadi. Ta'lim-tarbiya jarayoni bilamiz-ki, nazariy va amaliy bilimlarga asoslanadi. Bularni o'zlashtirish, amalga oshirish uchun esa nutq va muloqot eng asosiy vosita hisoblanadi. Muloqot insoniyatning ijtimoiylashuvida, fikr ifodalashida quroldir.

Kommunikatsiya- bu shaxslar o'rtasida axborot, fikr, g'oya, hissiyot va tajribani til vositalari (og'zaki, yozma) hamda noverbal belgilar (imo-ishora, mimika, intonatsiya) orqali uzatish, qabul qilish va talqin etishdan iborat bo'lgan ijtimoiy-psixologik jarayondir. [2,32-b]

Pedagogik va psixolingvistik nuqtayi nazardan, kommunikatsiya o'quvchi shaxsining nutqiy rivoji, tafakkuri va ijtimoiy moslashuvi uchun zarur bo'lgan markaziy mexanizmdir. L.S. Vygotskiyga ko'ra muloqot





(kommunikatsiya) bola tafakkuri va nutqining rivojlanishida asosiy omildir. Kommunikatsiya jarayoni orqali bola:

1. Til birliklarini o'zlashtiradi,
2. Fikrlashni o'rgana boshlaydi,
3. Ijtimoiy tajribani egallaydi.

J.Dyuning fikricha o'quv jarayoning samaradorligini o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali kommunikatsiya mavjudligiga bog'liq, chunki bilim aynan o'zaro muloqot orqali shakllanadi va mustahkamlanadi. [5,73-b]

Boshlang'ich ta'limda kommunikatsiya- o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro axborot almashuvi asosida bilim olish, fikr bildirish, muammoni yechish, o'rganilgan ma'lumotni qayta ishlash va ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonini tashkil etuvchi didaktik-psixologik hodisadir. Bu jarayon yosh o'quvchilarda:

1. Og'zaki nutq
2. Tinglab tushunish
3. Yozma ifoda
4. Ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar
5. Mustaqil fikrlash kabi kompetensiyalarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari psixologik jihatdan faol, qiziqish bilan o'rganadigan yosh bo'lgani sababli ular bilan muloqot, suhbat, rolli o'yinlar, ijodiy topshiriqlar orqali nutq ko'nikmalarini rivojlantirish samarali hisoblanadi. Bu jarayon quyidagi natijalarga olib keladi:

1. O'quvchining o'z fikrini mustaqil ifodalashi;
2. Nutqning grammatik to'g'riligi;
3. Tinglash va tushunish ko'nikmasi rivojlanishi;
4. Jamoaviy ishlash madaniyatining shakllanishi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda qo'llaniladigan samarali metodlar va texnologiyalar mavjud:

- a) Muammoli vaziyatlar yaratish- vaziyatli savollar bolalarni o'ylashga, fikrini aniq ifodalashga undaydi.
- b) Rolli o'yinlar- "O'qituvchi-o'quvchi", "Sotuvchi-xaridor", "Mehmon-mezbon" kabi rolli o'yinlar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi.
- c) "Aqliy hujum" metodi-o'quvchilarni tezkor fikrlashga, turli g'oyalarni bayon etishga tayyorlaydi.
- d) Matn bilan ishlash- matndagi asosiy g'oya, qahramonlar, voqealarni qayta hikoya qilish, yozma va og'zaki nutqni rivojlantiradi.
- e) Klaster, sinkveyn, insert texnologiyalari- yangi mavzularni tizimli o'zlashtirishga, fikrni tuzib ifodalashga yordam beradi.

Kommunikativ kompetensiya samarali shakllanishi uchun o'qituvchi o'quvchilar uchun ochiq, do'stona muloqot muhiti yaratishi; fikr bildirgan o'quvchini rag'batlantirishi; erkin fikrlashga sharoit yaratishi; interfaol metodlardan muntazam foydalanishi zarur. Rivojlangan kommunikativ





kompetensiyaga ega boshlang'ich sinf o'quvchisi muloqot jarayonida faollik ko'rsatadi; o'z fikrini bir nechta usulda bayon eta oladi (og'zaki, yozma, grafik); ijtimoiy hayotga tez moslashadi; jamoada ishlash madaniyatiga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish — zamonaviy ta'limning ustuvor vazifasi bo'lib, o'quvchilarni faol, fikrlovchi, muloqotga kirishuvchan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlardan foydalanish, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik muloqoti hamda ijodiy topshiriqlar qo'llanilishi bu jarayonning samaradorligini oshiradi.

FOYDANAILGAN ADABIYOTLAR

1. Qushaqova O. N., Abduraxmonova N. A. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyalarining rivojlantirish metodikasi. – 2025.
2. Mirzaboyeva D., Makhsudova O. Developing communicative competence of primary school pupils through interactive methods. – 2025.
3. Qamchiyeva Z. Communicative Language Teaching: Effectiveness in the Modern Classroom. – 2025.
4. Alimatova S. Impacts of Communicative Competence on Second Language Acquisition and Improving Speaking Skills. 2024.
5. Yusupaliyeva Sh. Developing Communicative Competence in Teaching Foreign Languages Through Innovative Approaches. 2024.
6. Aliqulova M., Xasanova F., Azimjonovna Z. Exploring Communicative Language Teaching as an Effective Methodology. 2024.
7. Burxonova A. I. Talabalarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. 2024
8. Djampulatova N. Kommunikativ kompetensiya tushunchasi va uning turlari. 2023.
9. Richards, J. C. Key Issues in Language Teaching. Cambridge University Press, 2023.
10. Harmer, J. The Practice of English Language Teaching (5th Edition). Pearson, 2020.
11. Nation, I. S. P., & Macalister, J. Language Curriculum Design (2nd Edition). Routledge, 2020.
12. Gibbons, P. Scaffolding Language, Scaffolding Learning (2nd Edition). Heinemann, 2021.
13. Lightbown, P., & Spada, N. How Languages Are Learned (5th Edition). Oxford University Press, 2021.
14. Brown, H. D., & Lee, H. Teaching by Principles: An Interactive Approach to Language Pedagogy (5th Edition). Pearson, 2021.
15. Littlewood, W. Communicative Language Teaching and Task-Based Learning. Cambridge, 2022.
16. Thornbury, S. 30 Language Teaching Methods. Cambridge University Press, 2022.

